

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
№ DSc33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND
FILIALI**

ABDURAXMANOVA AQIDA FAYZULLA QIZI

**HUDUDLARDA EKOLOGIK TURIZM SALOHİYATIDAN SAMARALI
FOYDALANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH (SAMARQAND
VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati (iqtisodiyot fanlari)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi

Hududlarda ekologik turizm salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida).....3

Абдурахманова Акида Файзулла кизи

Совершенствование методов эффективного использования потенциала экологического туризма в регионах (на примере Самаркандской области) ...23

Abdurakhmanova Akida Faizulla kizi

Improving methods for the effective use of the potential of ecological tourism in the regions (on the example of the Samarkand region)43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works47

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
№ DSc33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND
FILIALI**

ABDURAXMANOVA AQIDA FAYZULLA QIZI

**HUDUDLARDA EKOLOGIK TURIZM SALOHIYATIDAN SAMARALI
FOYDALANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH (SAMARQAND
VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati (iqtisodiyot fanlari)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand-2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt2699 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.univ-silkroad.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Axrorov Farxod Baxriddinovich**
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Axmedov Ikrom Akramovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvondikov Shuxrat Oblakulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «_____» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 17-uy. Tel: (998 90) 213-89-07; Faks:(998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet hiyoboni, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «_____» _____kuni tarqatildi
(2023 yil «_____» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

X.I.Turdibekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.n., dotsent

B.Sh.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH(Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolib borishi kabi global ekologik mummolarining kuchayishi natijasida ekologik turizmga qiziqish ortib bormoqda. Ekoturizm atrof-muhitga zararli ta'sirlarini minimallashtirgan holda turizm industriyasini rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun yangi imkoniyatlarni taklif etmoqda. Rivojlangan transport infratuzilmasi va noyob ekoturizmning mavjudligi ichki va xalqaro turistlarni jalb etishi natijasida mehmonxona va restoran biznesi, milliy an'analar, hunarmandchilikka taalluqli sohalarning rivojlanishiga, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga imkon beradi. Jahon ekoturizm bozori hajmi 2022 yilda 189,88 milliard dollarni tashkil etdi va 2023 yilda 200,8 milliard dollarga o'sishi hamda yillik o'sish sur'ati (CAGR) 5,8 % ga oshishi kutilmoqda¹. O'sish asosan ekspeditsion sayohatlar, ochiq havoda dam olish, yakka sayohatlarda kuzatilishi bashorat qilinmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, ekoturizm bozori hajmi 2027 yilga kelib 13,4% ga yoki 331,62 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda². Bu jahon bozorida ekoturizm yo'nalishida sayohatlarga talabning ortayotganligi va sohaning yildan-yilga rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Jahonda ekologik turizmni rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik turizmning me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirish, ekoturizm maskanlarining jozibadorligini oshirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish, ekologik salohiyatdan to'g'ri foydalanish yo'llarini ishlab chiqish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada ekoturistik faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini aniqlash, tabiat va turizm o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ekoturizmni rivojlantirish va klaster modeli algoritmini hamda yangi ekoturistik marshrutlari ishlab chiqish, raqamlashtirish texnologiyalar asosida milliy bog' va qo'riqxonalarda ekoturizmni taraqqiy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish, barcha toifadagi turistlar uchun jozibador ekoturistik yo'nalishlar tarmog'ini barpo etish sohasida keng imkoniyatlarga ega. "Mehmonxona, madaniyat, tabiat, etno va gastronomik markazlarni bog'laydigan turizm klasterlari tashkil etish, shuningdek, yozda 22 ta qo'riqxonalar, 24 ta milliy tabiat bog'i va tabiat yodgorliklari imkoniyatidan ham foydalansa bo'ladi"³. Bu, o'z navbatida, ekoturizm sohasini rivojlanishiga, yangi yo'nalishlarni ochilishiga, sohani difersifikatsiya qilinishiga olib keladi. Mamlakatimizda turizm erishilgan natijalar bilan bir qatorda ekoturizmni kompleks rivojlantirish maqsadida ekoturizm obyektlarini iqtisodiy baholash usullarini takomillashtirish, mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan usullar tizimini yaratish, ekoturizm maskanlariga marshrutlar ishlab chiqish, ekologik turizm

¹ <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/ecotourism-market-report#>

² Butun jahon turizm tashkiloti ma'lumotlari

³ O'zbekiston Respublikasi Prezident raisligida mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi ma'ruzasi. 29 mart 2023 yil / Yangi O'zbekiston. №61. 2023 yil 30 mart.

klasterlarini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish kabi istiqbolli yo‘nalishlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli, 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5611-sonli Farmoni va ushbu farmon bilan tasdiqlangan “2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish” Konsepsiyasi, 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlari, 2023 yil 28 fevraldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-27-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 03 dekabrda “Ekoturizmni rivojlantirish chora-tadbirlari va suv omborlarining suv saqlanadigan zonalarida yer maydonlarini ajratish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 978–sonli, 2019 yil 30 sentabrdagi №828 sonli “Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga shirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ekologik turizmni rivojlantirishning nazariy, uslubiy va tashkiliy masalalari xorijlik Ye.Boo, X.Tseballos-Laskureyn, V.Adriana, A.Alonso, A.Ogle, A.Aminian, X.Ayala, V.Bramvell, B.Leyn, R.Batler, J.Kukier, Ye.Matteus, A.V.Drozdov, V.E.Boreyko, Ye.A.Djandjugazova, N.V.Moraleva⁴ kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Mamlakatimizda

⁴ Boo, E., Ecotourism: The Potentials and Pitfalls. Volumes 1-2. World Wildlife Fund. Washington, 1990.; Lascurain, H., Integrating Biodiversity into the Tourism Sector: Best Practice Guidelines. 2001.; Adriana B. Environmental supply chain management in tourism: The case of large tour operators. Journal of Cleaner Production, 17, 2009. –P. 1385-1392.; Alonso, A.D., Ogle, A. Tourism and hospitality small and medium enterprises and environmental sustainability. Management Research Review, 33, 2010. –P. 818-826.; Aminian, A. Environmental performance measurement of tourism accommodations in the pilgrimage urban areas: The case of the Holy City of Mashhad. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 35, 2012. –P. 514-522.; Ayala, H. Ecoresort: A ‘Green’ master plan for the international resort industry. International Journal of Hospitality Management, 14, 1995. – P. 351-374.; Bramwell, B., Lane, B. Towards innovation in sustainable tourism research? Journal of Sustainable Tourism, 20(1), 2012. –P. 1-7.; Butler, R.W. Tourism and the environment: A geographical perspective. Tourism Geographies: An International Journal of Tourism Space, Place and Environment, 2, 2000. –P. 337–358.; Cukier, J. Tourism employment issues in developing countries: Examples from Indonesia. In R. Sharpley, D.J.Telfer (Eds.), Tourism and development, concepts and issues. 2002. –P. 165–201.; Matthews E.J. Ecotourism: Are current practices delivering desired outcomes? A comparative case study analysis. April 30, 2002. Blacksburg, Virginia. Дроздов А.В. Как развивать туризм в национальных парках России. Рекомендации по выявлению, оценке и продвижению на рынок туристских ресурсов и туристского продукта национальных парков. –М.: ЭкоЦентр «Заповедники», 2000.;

ekoturizmni rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari K.X.Abduraxmonov, M.R.Boltaboyev, N.T.Tuxliyev, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, A.N.Norchayev, O.H.Xamidov, U.R.Matyoqubov, M.T.Aliyeva, I.A.Axmedov, A.Alimov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan⁵.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-Φ1-01-raqamli "Raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Hududlarda ekologik turizm salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Ekoturizm" tushunchasining mohiyatini nazariy jihatdan tahlil etish hamda mualliflik tahriridagi ta'rifini shakllantirish;

O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

ekoturizm ob'ektlarini iqtisodiy baholash usullarini takomillashtirish, mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan baholash tizimini ishlab chiqish;

Samarqand viloyatida ekoturizm salohiyatini tahlil qilish;

Samarqand viloyatida mavjud ekoturizm maskanlarining iqtisodiy asoslangan marshrutlarini ishlab chiqish;

Zarafshon milliy bog'ining turistlarni qabul qilish sig'imini hisoblash;

Samarqandda ekologik turizm klasterlarini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;

ekoturizmning aholi daromadiga ta'sir darajasini baholash;

Samarqand viloyati bo'yicha turizm sohasida aholi bandligi dinamikasini bashoratlash.

Tadqiqotning obyektı sifatida Samarqand viloyatida joylashgan ekoturizm maskanlarining tashkiliy-iqtisodiy faoliyati olingan.

Борейко В.Е. Дорога к заповеднику (Природоохранная пропаганда и экопросвещение в заповедных объектах). –М.: Экоцентр «Заповедники», 1996.; Джанджугазова Е. Экотуризм: причина популярности и пути развития. «Академические вести», 1996. №57; Moraleva, N., Ledovskikh, E., Sheftel, B. Ecotourism in Russian Nature Reserves: Possibilities, Problems, Perspectives. In: Report of the International Expert Workshop «Case Studies on Sustainable Tourism and Biological Diversity». German Federal Agency for Nature Conservation. 2000.

⁵ Abduraxmonov K.X. Менежмент туризма: Учебное пособие. –Т.: Филиал ФГБОУ ВПО РЭУ им.Г.В.Плеханова в г. Ташкенте, 2013. –S. 248.; Boltaboev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. –Т.: «Fan va texnologiya», 2018. –B. 400.; To'xliyev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana. –Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. –C. 386.; Pardayev M., Atabayev R. Turizm asoslari. Samarqand, SamISI. 2006. –B. 74.; To'xliyev I., Qudratov F., Pardayev M. Turizmni rejalashtirish. Darslik. –Т.: Iqtisod va moliya. 2008. –B. 262.; Norchayev A. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendentsiyalari. Iqt. fan. dok. ...avtoreferati 2021. –B. 38; Hamidov O. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2017.; Matyakubov U. Orolbo'yi mintaqasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ...avtoreferat. – Urganch, 2022. Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) Iqt. fan. dok. ...avtoreferati 2019. –B. 55 Alimov A. Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari. PhD doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati 2018. – B. 55

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, hududlarda ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida abstrakt-mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya, guruhlash, tizimli tahlil, regression tahlil, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining 6 ta ekoturistik maskanlarining (Zarafshon milliy bog‘i, Ertaklar olami, Teshiktosh, Ming archa, Oqbo‘yro, Hazrati Dovud) rekreatsion qiymatini takomillashtirilgan “Travel cost” metodi asosida baholash va shu asosida “Kirish chiptasi” narxini hisoblash bo‘yicha takliflar asoslangan;

“Zarafshon” milliy bog‘ining turistlarni qabul qilishda ekologik barqarorlikni ta‘minlovchi sig‘imidan kelib chiqib ekoturizm klasterining tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasini yaratish afzalliklari dalillangan;

“Omonqo‘ton”, “Qoratepa”, “Yuqori Tersak”, “O‘rta Tersak”, “Tersak” qishloqlarida ekoturistik majmualar, umumiy ovqatlanish shaxobchalarini yaratish asosida yangi turistik marshrutlarni joriy etish orqali ekologik turizmni rivojlantirish bo‘yicha takliflar asoslangan;

aholi yalpi daromadiga ekoturizmning ta‘sir etish darajasini baholash asosida Samarqand viloyati bo‘yicha turizm sohasida band aholi sonining 2028 yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

aholi yalpi daromadiga ekoturizmning ta‘sir etish darajasini baholash va hududlarda yoshlar hamda ayollar bandligini ta‘minlash uchun ekoturizm salohiyatidan foydalanish mexanizmi ishlab chiqilgan;

Samarqand viloyatida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturizmni samarali tashkil qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida ekoturizm klasterlarini tashkil etish bo‘yicha takliflar berilgan;

Samarqand viloyati ekoturistik salohiyati baholandi va ekoturistik ob‘ektlarning investitsion va restavratsion loyihalarini baholash uslubiyoti takomillashtirilgan;

Samarqand viloyatida mavjud bo‘lgan ekoturizm faoliyatini rivojlantirish, yangi ekoturistik yo‘nalishlarni ochib berish bo‘yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan;

Kobb Duglas ishlab chiqarish funksiyasidan foydalangan holda aholi yalpi daromadiga ekoturizmning ta‘sir etish darajasini baholash imkonini beruvchi usullar takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xorij iqtisodchi olimlarining turizm islohotlarga doir tadqiqot ishlaridagi ilmiy-uslubiy natijalarga tayanilganligi, ma‘lumotlarning uzoq muddatliligi va rasmiy manbalardan olinganligi, Samarqand viloyati hududida tanlab olingan ekoturizm obyektlaridan olingan so‘rovnoma ma‘lumotlariga asoslanganligi, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik-uslubiy asoslar hududlarda ekoturizm tarmog‘iga klasterlarni joriy qilish va istiqbolini bashoratlash orqali ekoturizm samaradorligiga ta’sir doirasini o‘rganishda hamda investitsion va restavratsion loyihalarda boshqa ekoturistik obyektlarni baholashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan ekologik maskanlar joylashgan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, xizmat ko‘rsatish sektorining rivojlanishi tadbirkorlik sub’ektlarini soni va ko‘lamini kengayishiga, bu orqali ayollar va yoshlar bandligi hamda daromadlarini oshishiga, turistlar oqimini maqbullashtirishning iqtisodiy-tashkiliy asoslarini ishlab chiqilishi insonlar foydalanishida bo‘lgan ekologik maskanlar tabiiy tiklanish salohiyatiga qo‘shimcha ravishda undan keladigan daromad hisobiga doimiy ravishda tozalash va tiklash tadbirlarini olib borish imkoniyatini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Ekoturizmni rivojlantirishning iqtisodiy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan quyidagi ilmiy natijalar amaliyotga joriy qilindi:

Samarqand viloyatining 6 ta ekoturistik maskanlarining (Zarafshon milliy bog‘i, Ertaklar olami, Teshiktosh, Ming archa, Oqbo‘yro, Hazrati Dovud) rekreatsion qiymatini takomillashtirilgan “Travel cost” metodi asosida baholash va shu asosida “Kirish chiptasi” narxini hisoblash bo‘yicha takliflar 2023 yil 28 fevraldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-27-sonli Farmonidagi Samarqand viloyati ekoturizmni yanada rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan (Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 27-apreldagi 05-12-15-2643-sonli dalolatnomasi). Taklifning amalga oshirilishi natijasida Samarqand viloyati ekoturizm obyektlariga tushadigan daromad ko‘rsatkichini 39,8 % ga ortishiga imkon yaratilgan;

“Zarafshon” milliy bog‘ining turistlarni qabul qilishda ekologik barqarorlikni ta’minlovchi sig‘imidan kelib chiqib ekoturizm klasterining tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasini yaratish bo‘yicha takliflar 2023 yil 28 fevraldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-27-sonli farmonidagi Samarqand viloyati ekoturizmni yanada rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan (Madaniyat va turizm vazirligining 2023 yil 27-apreldagi 05-12-15-2643-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida ekoturistlarning turmahsulotni sotib olish hajmini ikki barobarga oshishiga olib kelgan;

“Omonqo‘ton”, “Qoratepa”, “Yuqori Tersak”, “O‘rta Tersak”, “Tersak” qishloqlarida ekoturistik majmualar, umumiy ovqatlanish shaxobchalarini yaratish asosida yangi turistik marshrutlarni joriy etish orqali ekologik turizmni rivojlantirish bo‘yicha taklifi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 828-sonli qaroridagi “Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va

uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (Madaniyat va turizm vazirligining 2023 yil 27-apreldagi 05-12-15-2643-sonli dalolatnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish ekoturizm obyektlarining va ular joylashgan hududlaridagi aholi daromad darajasining 32% ga o'sishiga xizmat qilgan;

aholi yalpi daromadiga ekoturizmning ta'sir etish darajasini baholash asosida Samarqand viloyati bo'yicha turizm sohasida band aholi sonining 2028 yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "2023-2025 yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirish chora tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritalari" ga kiritilgan (Madaniyat va turizm vazirligining 2023 yil 27-apreldagi 05-12-15-2643-sonli dalolatnomasi). Natijada ekoturizmga qo'yilgan talablarni inobatga olgan holda tegishli parametrlarni qo'llash hisobiga hududlarni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7ta maqola, jumladan, 6ta respublika va 1ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Hududlarda ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanishni iqtisodiy baholashning nazariy va uslubiy asoslari**" masalalariga bag'ishlangan. Mazkur bobda turizm xizmatlarini ko'rsatish tizimida ekologik turizmni rivojlantirishning ilmiy-nazariy masalalari, ekologik turizm xizmatlari ko'rsatish samaradorligini baholashning metodologik asoslari, ekologik turizm xizmatlari ko'rsatishga doir xorijiy tajribalardan respublika iqtisodiyotida foydalanish yo'nalishlari tadqiq etish imkoniyati yoritilgan.

Tabiat resurslariga asoslangan turizm turlaridan biri bo'lgan ekoturizm dunyo bo'ylab sayohlik bozorining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biridir. So'nggi yillarda ekoturizmning tabiatni saqlashni qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos iqtisodiy vositasi sifatidagi ahamiyati oshib bormoqda. Ekoturizmning muhim

tarkibiy qismi ekologik ta'lim yoki unda qatnashuvchi sayohlar uchun ekologik madaniyatni shakllantirishdir. Bunday o'rganishlar sayohlarni tabiat to'g'risida ko'proq bilimlarga ega bo'lishlari va tabiatini saqlash bo'yicha harakatlarda ishtirok etishlari, siyosiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlashlari mumkinligidan dalolat beradi.

Ekoturizm tabiiy turizm bo'lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushunishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari ekoturizm ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo'lib, tabiiy muhit, madaniy tarkib, ekologik barqarorlikni, mahalliy aholi uchun tegishli daromadni va foydalanilayotgan resurslarning uzoq muddatli muhofaza qilinishini o'z ichiga oladi.

“Ekologik turizm”ning quyidagi belgilarini farqlash lozim⁶:

yovvoyi tabiatdan turistlar tashrif buyuradigan muhit sifatida bilvosita foydalanish;

atrof-muhitga bo'ladigan zararni minimallashtirish;


insonga rekratsion va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish;

yangi landshaftlar bilan tanishish, muhofaza qilish uchun flora va fauna namunalarini o'rganish;

turizmdan tushgan mablag'lardan hududlar flora va faunasini asrash va tiklash uchun foydalanish;

barcha turistlar va xizmat ko'rsatuvchi shaxslarning jonli tabiatga to'g'ri munosabatini shakllantirish va boshqalar.

Tadqiqot davomida ekoturizmning mahalliy darajada turizm biznesi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarga iqtisodiy ta'siri o'rganildi.



1- rasm. Ekoturizmni rivojlantirishning ijobiy va salbiy jihatlari ⁷

Ilmiy izlanishlar ko'rsatishicha, ekoturistik manzil qo'riqlanadigan tabiiy hudud bo'lsa, uning daromadlari quyidagi manbalardan olinishi mumkin:

- 1) kirish to'lovlari, lager xarajatlari va tashrif buyuruvchilardan olinadigan boshqa to'lovlar;
- 2) davlat daromadlarini taqsimlash;

⁶ O.Hamidov, A.Norchayev “Ekoturizm”-T:2011, 9 b.

⁷ Ekspert so'rovi natijasida muallif ishlanmasi

- 3) xizmatlarni sotish;
- 4) ekoturistik manzildagi reklamalar;
- 5) tashrif buyuruvchilar tomonidan hayr-ehson qilish;
- 6) ekoturizm obyektida mahsulotlarni sotish yoki xizmatlarni taqdim etish

huquqi to'lovlar.

Mazkur ilmiy izlanishlar natijalari Samarqand viloyati hududida ekologik turizmni rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi:

noyob hududlarning tabiiy holatini saqlab qolish;

tabiiy muhitga yuklanishni kamaytirish;

aholi va tabiiy resurslardan boshqa foydalanuvchilarning tabiiy resurslardan foydalanishdagi ekologik savodxonligini oshirish;

davlat tuzilmalarining ekologik huquqbuzarliklarni nazorat qilish va oldini olish sohasidagi faoliyati samaradorligini oshirish;

tabiiy muhitning holati, muhofazasi va rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarning axborot tizimini yaratish.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Samarqand viloyati hududlarining ekoturizm salohiyati va uning samaradorligi tahlili”** deb nomlangan bo'lib, Samarqand viloyatida ekologik turizm obyektlarining o'ziga xos xususiyatlari, qiymatini aniqlash usuli, “Kirish chiptasi” narxini hisoblash metodikasi, qishloq hududlaridagi aholi farovonligi va unga ekoturizm xizmatlarini rivojlantirishning ta'siri tahlil etilgan, “Zarafshon milliy bog'i”ning turistlarni qabul qilishning ekologik barqarorligini ta'minlovchi sig'imi hisoblangan hamda hududlar ekoturizm salohiyatini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy, ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ekologik maskanlardagi atrof-muhit va uning resurslaridan foydalanish uchun to'lovlarni belgilashda joylashgan hududga sayohat qilish xarajatlari ham e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq. “Travel cost” (Sayohat xarajatlari) metodi boshqa keng qo'llaniluvchi qiymat metodlari orasida dam olishga bo'lgan talabni va resurs qulayliklarining jami qiymatini baholovchi muhim kompleks usul hisoblanadi. Tadqiqotlarimizda “Travel cost” (Sayohat xarajatlari usuli) metodi Samarqand viloyatidagi tabiiy turistik joylarni baholashda qo'llanilishi taklif qilingan. Ushbu metod parklar va o'rmonlar kabi bozorga tegishli bo'lmagan tovarlarning rekreatsion qiymatini (bahosini) aniqlashning eng aniq va mos usullaridan biridir. Travel cost usulidagi asosiy gipoteza shundan iboratki, maskanning qiymati tashrif buyuruvchilarning ushbu joydan foydalanish uchun sarflagan xarajatlariga tengdir.

Ekoturizm obyektlarining rekreatsion qiymatini aniqlash uchun har bir hudud bo'yicha ekoturizm obyektlarining qiymati hisoblandi. Bir tashrif uchun ekoturizm obyektlarining qiymatini (V) hisoblashda quyidagi formuladan foydalanildi⁸:

$$V = ((T \times w) + ((D \times v) + Ca) \times Va) \quad (1)$$

Bunda,

T – sayohat davomiyligi (soat);

⁸ https://www.ecosystemvaluation.org/travel_costs.htm

w – turistlarning o‘rtacha ish haqqi darajasi (so‘m/soat);
D – turistik obyektgacha masofa (km);
v – avtomobildan marjinal foydalanish xarajatlari (so‘m);
C_a – ekoturizm ob‘ektiga kirish qiymati (chipta narxi) (so‘m);
V_a – bir yilda o‘rtacha tashriflar soni (kishi).

1- jadval

Ekoturizm obyektlarining umumiy qiymati (mln. so‘m)⁹

№	Hududlar	Ertaklar olami	Hazrati-Dovud	Zarafshon milliy bog‘i	Teshiktosh	Ming archa	Oqbo‘yro
1	A hudud	452,76	74,23	132,43	61,51	94,17	65,33
2	B hudud	685,61	750,84	135,79	241,80	432,69	386,03
3	C hudud	97,05	114,55	-	-	53,46	204,90
4	D hudud	-	26,68	-	-	-	130,67
5	E hudud	-	2997,73	-	-	169,72	35,97
	Jami	1235,43	3964,05	26,23	303,32	750,05	822,92

Hisoblash natijalariga ko‘ra, Ertaklar olami ekoturizm obyektining bir yillik foydalanish qiymati 1235,43 mln. so‘mni, Hazrati Dovud 3964,05 mln. so‘mni, Zarafshon milliy bog‘i esa 26,23 mln. so‘mni, Teshiktosh 303,32 mln. so‘mni, Mingarcha 750,05 mln. so‘mni, Oqbo‘yro esa 822,92 mln. so‘mni tashkil etadi.

Tadqiqotimiz natijasida, har bir hududdan tashrif buyuruvchilarning xarajatlarini hisoblagan holda, ekoturizm obyektlariga kirish to‘lovlarini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiq¹⁰:

$$E_t = V/V_a \quad (2)$$


Bu yerda,

E_t- Ekoturizm ob‘ektiga kirish to‘lovi

V- ekoturizm obyektining qiymati

V_a- yiliga o‘rtacha tashriflar soni

Bu formuladan foydalanib har bir obyektga 1 kishi uchun o‘rtacha kirish to‘lovi narxi aniqlangan bo‘lib, natijalar quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



2- rasm. Ekoturizm obyektlariga 1 kishi uchun o‘rtacha to‘lovi (so‘m)¹¹.

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan va hisoblangan

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan va hisoblangan

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan va hisoblangan

Yuqoridagilardan kelib chiqib, agar ekoturizm obyektlariga kirish chiptasi narxlari oʻrnatilsa, 2-jadvaldagi natijalarga ega boʻlamiz.

2 – jadval

Samarqand ekoturizm maskanlariga “Kirish chiptasi” oʻrnatilganda daromadning oʻzgarishi

№	Koʻrsatkich-lar	Ertak-lar olami	Hazrati-Dovud	Zarafshon milliy bogʻi	Teshiktosh	Ming archa	Oqboʻyro
Kirish chiptasi mavjud boʻlmagandagi holat							
1	Turistlar soni (kishi)	25088	47480	7840	12040	22512	24304
2	Daromad (ming soʻm)	551936	1661800	101920	204680	427728	461776
Kirish chiptasi oʻrnatilgandan keyingi holat							
1	Kirish chiptasi narxi	49243	83488	34213	25192	33317	33858
2	Turistlar soni (kishi)	15131	28662	4141	11374	18230	18957
3	Daromad (ming soʻm)	745095	2392933	141676	286533	607368	641846
Daromadlar oʻrtasidagi farq							
1	Miqdoriy (+;-)	193159	731133	39756	81853	179640	180070
2	Nisbiy (%)	134,9	143,9	139	139,9	141,9	138,9

Ekoturizm obyektlariga kirish chiptasining oʻrnatilishi turistlar oqimining kamayishiga olib kelsada, maskanning turistlarni qabul qilish sigʻimini aks ettiruvchi ekoturistik xizmat taklifi bilan unga boʻlgan talabning muvozanatlashishiga, shu orqali tabiiy maskanning bir maromda yuklanishi va uning tiklanishiga imkon beradi. Tadqiqotlar kirish chiptasining oʻrnatilishi tashrif buyuruvchi turistlar sonining kamayganini, ammo daromad darajasining oʻrtacha 38,9 % ga ortganini koʻrsatdi.

Shuningdek, ekoturizm faoliyati daromadining oshishi bu sohada aholi bandligining salmogʻi oshishiga olib keladi. Ekoturizm bilan band aholining aktivlar va inson kapitaliga (taʼlim orqali) sarmoya kiritish qobiliyati kelajakdagi kambagʻallikni qisqartirish imkoniyatini oshiradi. Ekoturizm obyektlarida xizmat koʻrsatish sektorining rivojlanishi ular joylashgan qishloq hududlarida tadbirkorlik subyektlarini soni va koʻlamini kengayishi orqali aholi daromadlari va ayollar hamda yoshlar bandligi oshishiga xizmat qiladi.

Jahon amaliyoti koʻrsatishicha, bugungi kunda ekoturizm maskanlariga insoniyatning salbiy taʼsiri sezilarli darajada oshmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, biz har bir ekoturizm maskanlarining turistlarni qabul qilish sigʻimi muhim koʻrsatkichlardan biri ekanligini inobatga olib, “Zarafshon milliy bogʻi”ning turistlarni qabul qilish sigʻimini hisobladik (3-jadval). Ushbu maʼlumotlariga koʻra “Zarafshon milliy bogʻi” da rekreatsiya boʻlimi maydoni – 352,4 gektarni tashkil

etadi. Bu hududda ekoturizm marshrutlari tashkil etilgan bo‘lib, turistlarni qabul qilishning amaldagi sig‘imi 1 kunda 3524 kishini, potentsial sig‘imi 9373 kishini, maqbul sig‘imi 1 kunda 4189 kishini, 1 yildagi maqbul sig‘imi 1026314 nafarni tashkil etdi.

3-jadval

“Zarafshon milliy bog’i” ning yil davomida turistlarni qabul qilishining sig‘imi¹²

Xizmat turi	Sayr qilish va manzaralarni tomosha qilish
Ekoturizm uchun ajratilgan maydon (m ²)	3524000
Faoliyat uchun standart maydon (m ²)	1000
Aylanish koeffitsienti	2,66
1- cheklovchi omil (Lf ₁)	0,671
2- cheklovchi omil (Lf ₂)	0,666
Turistlarni qabul qilishning amaldagi sig‘imi (kishi/kun)	3524
Turistlarni qabul qilishning potentsial sig‘imi (kishi/kun)	9373
Turistlarni qabul qilishning kunlik maqbul sig‘imi (kishi/kun)	4189
Turistlarni qabul qilishning yillik maqbul sig‘imi (kishi/yil)	1026314

Ekoturizm maskanlarining turistlarni qabul qilish sig‘imini aniqlash orqali tartibga solish hududda ekotizimga putur yetkazish, uning sifatining pasayishini, ekologik muhitning jozibadorligining yomonlashuvini hamda estetik qiymatini pasayishining oldini olishga va shu orqali ularning iqtisodiy qiymatini oshirishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Samarqand viloyatida ekoturizm salohiyatidan foydalanish holati va uning samaradorligi tahlili**” deb nomlangan. Viloyatda muhofaza etiladigan hududda ekoturizm klasterini shakllantirish asosida ekologik turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari aniqlandi va ekoturizm marshrutini tashkil etish mexanizmi asoslanib, ekologik turizm faoliyatining aholi daromadiga ta’sirining ekonometrik modeli yaratildi. Shuningdek, mazkur bobda ekoturizm faoliyatida band bo‘lgan aholi sonining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida o‘rganilgan ekoturizm obyektlardagi infratuzilma, xizmat ko‘rsatish darajasi, tabiiy ekologik muhitning holatidan kelib chiqib, “Samarqand bo‘ylab ekoturizm mashrutlari” ishlab chiqildi va bunda mavsumiylikni inobatga olgan holda mashrutlarning obyektlari belgilandi (4-jadval).

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

“Samarqand-Urgut” ekoturizm marshruti sayohat tarkibi¹³

№	Ko‘rsatkichlar	Izohlar	
1	Marshrutning yil davomida davomiylik muddati	7 oy	
2	Marshrut turi	Ekoturizm	
3	Marshrut masofasi	136 km	
4	Marshrut harakatlanishi	Transportda	Marshrut turi bo‘yicha 20 km
		Piyoda	
5	Marshrutdagi turistlar soni	12 ta	
6	Marshrut sayohat obyektlari	Ming archa	
		Qoratepa	
		Yuqori va o‘rta Tersak	
		Tersak	
7	Marshrutda sayohat davomiyligi	4 kun	

Turistlarni jalb qilish uchun marshrutlar bo‘ylab zamon talablariga mos holda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani ham rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Buning zamonaviy yechimi klasterlash tizimidir.


